


**Farg'onaazot aksiyadorlik jamiyati**

fargonaazot_uz | fargonaazot.uz | info@azot.uz
www.azot.uz | AO Farg'onaazot | t.me/fargona_azot

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

6-son (1729)
2024-yil,
31-iyul


# 30-IYUL — XALQLAR DO'STLIGI KUNI



**Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatida azaldan turli millat vakillari ahillikda faoliyat yuritib kelishadi. Jamiyatda elatlar o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik hukm suradi. Shu sababli, 30-iyul "Xalqlar do'stligi kuni"ni korxonada katta bayram qilib nishonlashni asl mohiyati ham ana shu totuvlikdadir.**

Xalqlar, mamlakatlar, madaniyatlar va shaxslar o'rtasidagi do'stlik, tinchlikni ta'minlash, madaniy va ma'naviy xilma-xillikni ko'rsatib berish hamda xalqlar o'rtasidagi hurmat, oqibat kuni bayramini korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov o'zining tabrik so'zi bilan ochib berdi. U o'z nutqida barchani bayram bilan tariklar ekan, qaysi millat vakili bo'lishimizdan qat'iy nazar O'zbekiston farzandlari ekanligimizni, ahillik, birdamlikda faoliyat yuritishimiz, yashashimiz lozimligini aytib o'tdi.

Tadbir avvalida har xil millatli xodimlar o'z tillarida korxona ahliga salomlar yo'lladilar. Ma'noli she'rlar, quvnoq kuy-qo'shiqlar, milliy raqslar bilan tadbir ishtirokchilarini xushnud etdilar. Turli millat vakillari bir-birlariga inoqlik ila bir sahnada ko'rinish berdilar. Boshlovchilar esa har bir chiqishlar oldidan o'zbek, qirg'iz, rus, tojik va hind tillari kelib chiqishi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tdilar.

Bayram konserti barcha xodimlarga manzur bo'ldi. Aytib o'tish lozimki, Bu kabi bayramlar hamma elatlar o'rtasidagi rishtani yanada mustahkamlashga va albatta O'zbekistonimizda do'stlik hukm surishiga zamin yaratadi.

**E'zozxon ABDULLAYEVA**



JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT:

## MISSIONERLIK – MILLAT VA DIN KUSHANDASI



**Mazkur mavzu va boshqa mamlakatimiz tinchligiga, xalqimiz ongiga rahna solayotgan illatlar to'g'risida korxonaning majlislar zalida yig'ilish o'tkazildi.**

Yig'ilishga Farg'ona shahar hokimiyati Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi mutaxassisi Ilhomjon Xolmatov, Din ishlari bo'yicha qo'mita bosh mutaxassisi Ilxomjon Mirzaxmedov, IIB Terrorizmga qarshi kurash bo'limi xodimi Abrorjon Haydarov, Musulmonlar idorasi vakili Abdunosir Oxunov, Farg'ona shahar Adliya boshqarmasi xodimi Olloyorxon Abdullayevlar tashrif buyurdilar.

Korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov yig'ilishni ochib berar ekan, jamiyat ma'muriyati tomonidan azal-azaldan "Jaholatga qarshi kurash" mavzusiga katta e'tibor qaratib kelinganligini, xodimlarimizni bu boradagi bilimlarini yanada mustahkamlash, turli illatlardan saqlash, ayniqsa yoshlarimizni bu kabi qabih harakatlardan saqlash, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish masalalariga alohida ahamiyat qaratib kelinganligni ta'kidlab o'tdi. Shu o'rinda, Vatanimizni yovuz mavkuralardan saqlash barchamizning zimmamizda ekanligini aytib o'tdi.

So'ng, soha mutaxassislari o'zlarining mavzuga oid – missionerlik, uning maqsadi, oqibatlari to'g'risidagi ma'ruzalarini jamiyat xodimlariga taqdim etdilar. Juda qiziq kechgan yig'ilishda xodimlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javoblar oldilar.

Yig'ilish so'nggida boshqaruv raisi maslahatchisi E'zozxon Abdullayeva Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona shahar bo'linmasi tomonidan mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ona yurtga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini qaror toptirish, aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirishdagi fidokorona xizmatlari uchun Faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

**O'z muxbirimiz.**

## "KIBERMADANIYATNI YUKSALTIRISH OYLIGI" DOIRASIDAGI SEMINAR TO'G'RISIDA



Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-fevraldagi 37-son farmonida fuqarolarni kiberjinoyatlar qurboniga aylanishini oldini olish va fuqarolarda kiberjinoyatga qarshi kurashishda "kibergigiena"ni shakllantirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish belgilab berilgan. Farmon ijrosini ta'minlash uchun viloyatimiz bo'ylab 1-iyuldan 30-iyulga qadar "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" belgilangan bo'lib, "Farg'onaazot" AJda mazkur mavzuda seminar tashkil etildi.

Seminarining asl maqsadi internet tarmog'idan oqilona foydalanish, fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni virtual firibgarliklardan, kiberjinoyatlardan, feyk xabarlar, onlayn qimorlardan saqlash, bank kartalaridan xavfsiz foydalanishni ko'zda tutgan.

Seminarga soha mutaxassislari taklif etildi. Farg'ona viloyati Ichki ishlar borshqarmasi Kiberxavfsizlik bo'limi yetakchi mutaxassisi, leytinant Kamronbek Qurbonov, Kirguli masjidi mas'ul xodimi Abdulboqi Ortiqov va korxona psixologi Nargiza Ergashevalar kiberxavfsizlik bo'yicha ma'lumotlarni taqdimot tarzida ishchi-xodimlarga so'zlab berdilar.

**O'z muxbirimiz.**

# BOLALAR SOG‘LOMLASHTIRISH OROMGOHIDA DOIMIY RAVISHDA MUSOBAQALAR VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR OLIB BORILMOQDA

**Joriy yilda Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida 4 mavsumda korxona ishchi-xodimlarining mingdan ortiq farzandlari yuborildi. Bolajonlar yoz faslining jazirama issig‘ida oromgohda jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilayotgan turli xil intellektual o‘yinlarda, musobaqalarda ishtirok etishmoqda, kitoblar mutolaa qilmoqdalar, ma’naviy-ma’rifiy davra suhbatlari, seminarlarda qatnashmoqdalar.**









Shu o‘rinda, “Kamondan o‘q otish”, “Estafeta” sport turlari bo‘yicha musobaqalar, psixologik treninglar, viloyatimizda o‘tkazilayotgan “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” doirasida o‘tkazilgan bir qator seminarlar, davra suhbatlarida ham bolajonlar bajonidil ishtirok etdilar.

Musobaqalarda barcha oromgoh bolajonlari qamrab olindi. Ishtirokchilar o‘rtasida g‘oliblar aniqlanib va sovrindorlar “Farg‘onaazot” AJ kasaba uyushmasi qo‘mitasi, Yoshlar ittifoqi Kengashi hamda Milliy Gvardiya Farg‘ona viloyati Qo‘riqlash xizmati tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar. Shu o‘rinda, oromgohda bolajonlar uchun Farg‘ona davlat universitetidan tashrif buyurga psixologlar tomonidan psixologik treninglar o‘tkazildi.

Farg‘ona viloyati hokimi tomonidan 2024- yil 11-iyun kuni imzolangan, Farg‘ona viloyatida “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” e’lon qilish qaroriga asosan yosh avlodda kibermadaniyatni rivojlantirish, ularda “kibergigiena”ni shakllantirish maqsadida oromgoh bolajonlari uchun targ‘ibot tashviqot ishlari olib borildi.

Tadbirda bolajonlarga internet tarmog‘idan to‘g‘ri foydalanish, virtual firibgarlikdan, tahdidlardan, turli illatlardan himoyalanish, zararli havolalar, salbiy kayfiyatni yuzaga keltiruvchi turli saytlar, yolg‘on, feyk xabarlar domiga tushib qolmaslik uchun immunitet hosil qilish kabi mavzularda ma’ruzalar qilindi.

Tadbir so‘nggida bolajonlar mavzu bo‘yicha o‘zlarning fikr-mulohazalarini so‘zlab berdilar.

**O‘z muxbirimiz.**

# “FARG‘ONAAZOT” AJDA MUROJAATLAR BILAN ISHLANMOQDA

**2024-yilning birinchi yarmida “Farg‘onaazot” AJga jismoniy va yuridik shaxslardan 85 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 2 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasidan, 1 tasi sayyor qabullarda, 27 tasi bevosita jismoniy shaxslardan yozma murojaatlar va 55 tasi og‘zaki murojaatlarni tashkil etgan.**

Bevosita “Farg‘onaazot” AJga kelib tushgan 83 ta murojaatlar bo‘yicha 9 tasi qanoatlantirildi, 74 tasiga tushuntirish berildi. Virtual qabulxona orqali kelib tushgan 2 ta murojaatlar bo‘yicha 1 tasi qanoatlantirildi, 1 tasiga tushuntirish berildi.

Tahlillarga ko‘ra, qanoatlantirilgan murojaatlarning aksariyati nogiron va kam ta’minlangan ishchi – xizmatchilarga moddiy yordam ko‘rsatish va boshqa masalalarni tashkil etadi. Tushuntirish berilgan fuqarolarning ko‘pchiligi korxonaga ishga joylashish yuzasidan murojaat qilishgan.

“Farg‘onaazot” AJ boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlari tomonidan sayyor va shaxsiy qabullari orqali 1 nafar jismoniy shaxs qabul qilingan. Kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi 59 ta – ishga joylashish, 2 ta- homiylik masalasi, 24 ta- boshqa masalalarga to‘g‘ri keladi. Jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonida qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilmagan.

2024-yil 1-choragida jamiyatda murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha OAVda chiqishlar soni 2 tani tashkil etgan va har chorakda jamiyatning “Kimyogar” gazetasi va elektron saytlarga joylashtirib borilmoqda.

**Gulnora MUROTOVA,
Murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassis.**



# KORXONADA “DOLZARB 30 KUN”



**Yodingizda bo‘lsa, avvallari qish ostonasida “Yong‘in xavfsizligi oyligi” o‘tkazish doimiy tadbirlar sarasiga kiritilgan edi. Yong‘inlar va favqulodda vaziyatlarning tahlili o‘laroq, bu tadbir yozning jazirama paytida ham o‘tkazilishi maqsadga muvofiq deb topildi.**

Boisi avvallari faqat yong‘inlarning oldini olish, yong‘in xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda tizimdagi islohotlar tizim faoliyatining yanada kengayishiga zamin yaratdi. Endilikda yong‘in xavfsizligini ta’minlash ishlari qatorida favqulodda vaziyatlarning oldini olish vazifalari ham birgalikda olib borilmoqda.

Yozning jaziramasida cho‘milish bilan bog‘liq ko‘ngilsiz hodisalar ham shular jumlasidandir. Yong‘inlarning va favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasidagi vazifalarning samarasini oshirish, targ‘ibot ishlarining ko‘lamini kengaytirish va bu tadbirlarga keng jamoatchilikni jalb qilish maqsadida “Dolzarb 30 kunlik” tadbirini o‘tkazish ehtiyoji yuzaga keldi. Bu tadbir yozning ayni issiq davri 1 iyuldan 1 avgustga qadar o‘tkazilishi belgilandi. Bu davrda yurtimiz bo‘ylab kuchaytirilgan tarzda yong‘inlar va favqulodda vaziyatlar profilaktikasi tadbirlari o‘tkaziladi, fuqarolarga yong‘in ofatiga sabab bo‘luvchi holatlar haqida tushuntirishlar berilib, kuzatilgan muammolar, ularni bartaraf etish borasida tavsiyalar berib boriladi.

Bu borada “Farg‘onaazot” AJ obyektlarini yong‘indan muhofaza qiluvchi Yong‘in xavfsizligi bo‘limi xodimlari ham tadbir doirasida keng profilaktika tadbirlarini olib bordilar. Reja asosida sexlarda yong‘in xavfsizligi qoidalarini targ‘ib qilish, yong‘inlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan uchrashuvlar, yong‘in o‘chirish texnika va vositalari namoyishlari o‘tkazilib borilmoqda. Uchrashuvlarda ishchilarga yong‘in o‘chirish kuch va vositalarining namoyish etilib, ularga yong‘in va favqulodda holat sodir bo‘lgandagi birlamchi xatti-harakatlar o‘rgatilib borilmoqda.

Sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va favqulodda holatlarning oldini olish borasida favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari boshqa mutasaddi tashkilotlar xodimlari bilan hamkorlikda keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib bormoqdalar. Afsuski, shuncha amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarga qaramasdan, ayrim kishilar ongida “Bu menga taalluqli emas”, “Men bilan bunday bo‘lmaydi”, degan qarashlar hali ham mavjud. Yong‘in shunday ofatki, uni qachon va qayerdan kelib chiqishini hech kim bilmaydi, u kutilmaganda paydo bo‘lib, insonlar hayotiga jiddiy xavf solib, noxush oqibatlari bilan insonlar hayotiga xavf soladi.

Yong‘inga qarshi kurashishning eng yaxshi yo‘li bu – uning oldini olishdir. Zero, yong‘inni o‘chirishdan ko‘ra, uning oldini olgan afzalroqdir. Ayrim yong‘in xavfsizligi qoidalariga e’tiborsiz bo‘lgan, o‘tkazilgan yo‘riqnomalarga loqayd qaragan fuqarolar tufayli tilsiz yov o‘zining noxush oqibatlari bilan insonlar hayotiga xavf solayotgani ham bor gap.

Yong‘inlarning oldini olish nafaqat yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlarining, balki barchaning burchi ekanligini ta’kidlash joiz. Chunki, loqaydliklariga chek qo‘yilmas ekan, kelgusida bunday noxush hodisalar yuz beraveradi, bu haqiqat.

**A. ABDUAXATOV,
“Farg‘onaazot” AJ OYoXTTEB inspektori leytenant.**

# KASALLIKNI DAVOLAGANDAN KO‘RA UNING OLDINI OLGAN YAXSHI: OITS KASALLIGI TO‘G‘RISIDA NIMALARNI BILAMIZ

**OITS kasalligi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurash tizimini yanada kuchaytirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-14 sonli, viloyat hokimligining 2023-yil 7-fevraldagi 40-11-0-Q/23-sonli Qarorining 2023-2027 yillarga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI”ni 1-bandida OIV infeksiyasini yuqtirib olgan shaxslarning 95 foizi o‘z maqomini bilish zarurligi belgilangan. Shunga ko‘ra, Farg‘ona viloyat OITSga qarshi kurash markazi xodimlari tomonidan “Farg‘onaazot” AJ xodimlarini 2024-yilning 22-25-iyul kunlari OIVga tekshiruvi tezkor (ekspress-test) usulda amalga oshirildi.**

Shu o‘rinda biz jamiyatimiz xodimlariga OITS kasalligi to‘g‘risida nimalarni aytishimiz lozim, nimalardan ishchilarimiz boxabar bo‘lishsa kasallikni oldini olgin bo‘lamiz? Shular to‘g‘risida so‘z yuritishni lozim topdik.

Yashab turgan zot borki OITS kasalligi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Yosh avlodga qanday kasallik ekanini, yuqish yo‘llarini, epidemiologiyasini hamda profilaktikasini o‘rgatib borishimiz zarur. Shunda biz kasallikka qarshi kurashayotgan bo‘lamiz.

OIV infeksiyasi – odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan, klinik belgilarsiz virus tashib yuruvchilikdan immun tizimning og‘ir zararlanishigacha olib boradigan, uzoq davom etuvchi surunkali yuqumli kasallik. Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) – odamning immunitet tanqisligi virusi odamning immun tizimini shikastlashi natijasida opportunistik infeksiyalar, xavfli o‘smalar rivojlanib, asab tizimini izdan chiqaruvchi OIV infeksiyasining so‘nggi (terminal) bosqichidir.

OIV infeksiyasi uzoq davom etuvchi surunkali yuqumli infeksiyalar qatoriga kiradigan antroponoz kasallikdir. Shaxsning virusni yuqtirib olishga moyilligi uning jinsi va yoshidan qat’iy nazar bir xil hisoblanadi. Odam immuntanqislik virusini yuqtirib olgan shaxslar infeksiyaning manbai hisoblanadi.

OIVga quyidagi xususiyatlar xosdir – qaynatilganda (100°S) virus 1-2 daqiqadan keyin o‘ladi, 70° gacha isitganda 10 daqiqadan keyin, 56° gacha isitganda 30 daqiqadan keyin faolligi yo‘qoladi. Odatdagi dezinfeksiyalovchi moddalarning eritmalari - 3% vodorod peroksidi, 5% lizol, 0,5% xlorli dezinfeksiyalovchi vositalar, 1% glyutaral aldegid, 70% etanol, efir, atseton virusni o‘ldiradi. Virus donordan olingan qon va muzlatilgan zardobda yillar davomida, tashqi muhitda quritilgan holatda +22OS haroratda 4-6 kungacha saqlanishi mumkin. So‘lak va terning himoya fermentlari virusning faolligini susaytiradi.

OIV quyidagi biologik suyuqliklarda yuqori konsentratsiyada uchraydi, masalan, qon, erkaklar va ayollar jinsiy a’zolari suyuqligi, ona sutida.

Qolgan biologik substratlarda OIV yuqishi uchun yetarli bo‘lmagan konsentratsiyada bo‘ladi. Shu sababli, so‘lak, ter, burundan oqadigan suyuqlik, balg‘am, ko‘z yoshi, peshob, najas va qusuq moddalari (tarkibida qon saqlamasa) epidemiologik nuqtai nazardan xavfli hisoblanmaydi. Biroq ushbu suyuqliklarga ko‘zga ko‘rinarli darajada qon aralashgan bo‘lsa, ular potensial havfli hisoblanadi.

Quyidagi suyuqliklar orqali OIVning yuqish xavfi epidemiologik nuqtai nazardan past hisoblanadi. Bular orqa miya suyuqligi, sinovial suyuqlik, plevral suyuqlik, peritoneal suyuqlik, perikardial suyuqlik va amniotik suyuqlik.

Hozirgi vaqtda OIVni uchta yo‘l bilan yuqishi tasdiqlangan:

1. Jinsiy yo‘l – OIV infeksiyali shaxs bilan jinsiy aloqada bo‘lganda yuqadi.
2. Parenteral yo‘l – OIV mavjud bo‘lgan qon, uning tarkibiy qismlari va komponentlari quyilganda, a’zo va to‘qimalar transplantatsiyasida, ekstrakorporal urug‘lantirish o‘tkazilganda, bir marta ishlatiladigan tibbiy asbob va anjomlar qayta ishlatilganda, sterillanmagan tibbiyot anjomlari (ginekologik, stomatologik, jarrohlik va boshqalar) dan foydalanilganda, shuningdek giyohvand moddani inyeksiya yo‘li bilan qabul qilishda boshqa shaxs ishlatgan vositalarni ishlatganda yuqishi mumkin.
3. Vertikal yo‘l – OIV infeksiyali onadan homilaga homiladorlik davrida (prenatal), tug‘ish paytida (intranatal) va emizishda (postnatal) yuqadi.

Kasallikning qon qoldiqlari mavjud bo‘lgan shaxsiy gigiena buyumlari (tish cho‘tkasi, soqol olish anjomi, teri qoplami butunligini buzib bajariladigan muolajalar uchun ishlatiladigan, sanchiluvchi va o‘tkir kesadigan buyumlar) orqali yuqishi istisno qilinmaydi.

OIV infeksiyasi qon so‘ruvchi hasharotlar (kana, bit, chivin) chaqishi orqali yuqmaydi. OIV infeksiyali bemor bilan so‘rashganda, bitta telefondan foydalanganda, bitta hojatxonadan foydalanganda, bitta basseynda cho‘milganda OIV infeksiyasi yuqmaydi.

Aholi tibbiyot muassasalariga (ko‘rikka, muolaja olish uchun, jarrohlik amaliyoti o‘tkazishi uchun, davolanish uchun) murojat etganda teri butunligi buziluvchi barcha muolajalarda bir martalik instrumentlarni ko‘z oldida ochishlarini talab qilishi yoki ko‘p martalik instrumentlarni sterilligini nazorat qilishlari mumkin. Xushyorlik davr talabi, ayniqsa tish shifokorlariga borganda instrumentlarni sterilligiga ishonch hosil qilishlari yoki bir martalik naborlardan foydalanishlari tavsiya beriladi.

**Nargizaxon TILLABOYEVA,
vrach-epidemiolog DSDS.**

# 12 СПОСОБОВ ВЫУЧИТЬ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК ЛЕГКО И БЫСТРО

**В качестве иностранного языка в мире чаще всего изучают… английский. Никогда еще у вас под рукой не было столько учебных материалов, статей, обещающих секретные подходы к обучению, или онлайн-сообществ, которые могли бы вас поддержать. Но если вам нужно выучить английский быстро – каков самый простой путь к получению результата?**

1. Начните говорить как можно скорее. Если вы серьезно настроены быстро научиться говорить по-английски, то существует очевидный совет: регулярное общение с бегло говорящим человеком – практически единственный способ. Чем быстрее вы преодолеете ментальный барьер и начнете вслух проверять свои языковые навыки, тем быстрее вы сможете уверенно заговорить.

2. Начните читать. Никогда не было так просто найти материалы для чтения на английском языке или быстро найти информацию в Google Translate. Если вы не совсем готовы взяться за полное собрание сочинений Шекспира, попробуйте:

- Просматривать сплетни о знаменитостях на удобных для чтения веб-сайтах, таких как Buzzfeed, Mashable или Upworthy;
- Читать любимую книгу в английском переводе;
- Переключить поисковый браузер на отображение результатов на английском языке по умолчанию;
- Следить за большим количеством американских / британских / австралийских общественных деятелей в Twitter и Facebook.

3. Возьмите на себя ответственность. Если вы хотите выучить английский быстро, регулярная практика должна стать привычкой. Но не стоит просто обещать себе, что вы потратите дополнительное время на отработку языковых навыков. Вы должны найти способ гарантировать, что будете практиковаться, даже когда жизнь диктует свои правила.

Если у вас мощная сила воли, то возложить на себя ответственность можно даже просто установив будильник на телефоне, чтобы напоминать себе о необходимости учиться каждый день в определенное время, например, когда вы приходите домой с работы. Но для большинства из нас гораздо легче сохранять мотивацию делать что-то новое, когда от нас зависит кто-то другой.

4. Ставьте более полезные цели, чем «я буду бегло говорить». В сообществе изучающих языки очень много внимания уделяется «свободному владению языком», но когда вы делаете первые шаги на пути к изучению английского языка, является ли это полезной целью? Скорее всего нет.

Фиксация на беглости говорит о том, что у изучения английского есть конечная цель, которая всегда недостижима. Правда в том, что каждый, кто говорит на любом языке, все еще учится. Исследования показали, что большинство людей продолжают учить дополнительные слова на родном языке каждый день вплоть до среднего возраста.

5. Помните о своей личной цели. Это нелегко: быстрое изучение английского потребует серьезных усилий. Чтобы придерживаться темпа, у вас должна быть мотивация, которая зажигает ваше сердце.

Когда вы определили свою цель, вы можете быть уверены, что все ваши усилия приближают вас к ней еще на один шаг. Например, человек, изучающий английский язык, чтобы получить степень в англоязычном университете, может сосредоточиться на специальных словах и фразах, относящихся к курсу. Если вы изучаете английский для работы, вы можете сосредоточиться на словах и фразах, относящихся к офисной жизни.

Этот шаг избавит вас от обычного разочарования: следование учебнику, который побуждает вас изучать контент, который вам не понадобится в ближайшее время. Не тратьте время на запоминание всех животных в зоопарке, если это не поможет вам выступить на собрании совета директоров!

6. Попробуйте использовать карточки, чтобы увеличить свой словарный запас. Предупреждаем: карточки могут быть ложным другом при изучении английского языка, заставляя вас тратить слишком много времени на изучение слов без контекста.

Однако в сочетании с большим объемом разговорной практики они представляют собой простой способ относительно быстро усвоить много новой лексики, причем дома. К счастью, существует множество отличных бесплатных приложений, так что вы можете начать запоминать слова, где бы вы ни находились! Вот некоторые из наших фаворитов – Tinycards, Memrise, Word Power Lite, Quizlet.

7. Учите целые предложения. Карточки полезны, но исследования показывают, что заучивание целых предложений может быть еще более полезным. Языковые «ботаны» называют эту технику «sentence mining». Выполните быстрый поиск в Интернете по запросу «sentence mining», и вы найдете активное интернет-сообщество, которое клянется, что это самый быстрый способ выучить английский дома.

8. Пойте. Музыка – великий универсальный язык! Она также может быть мощным инструментом, позволяющим сделать второй язык более естественным. Прослушивание музыки с английскими текстами может помочь вам лучше понять произношение, словарный запас и структуру предложений, совсем не чувствуя себя учеником.

9. Смотрите телевизор. Просмотр сериалов – один из лучших способов выучить английский язык. Попробуйте Language Learning with Netflix – расширение для Chrome, которое позволяет вам смотреть Netflix с субтитрами на английском и вашем родном языке одновременно. Этот отличный бесплатный инструмент позволяет даже сохранять новые слова, которые вам встретятся.

10. Слушайте, как носители английского языка (пытаются!) говорить на вашем языке. Независимо от того, является ли ваш родной язык чешским, испанским или турецким, скорее всего, вы разговаривали с носителем английского языка, который научился говорить на нем, и вы думали: «хм… звучит не совсем так».

Один простой совет – обращайте внимание на распространенные ошибки, которые носители английского языка делают на вашем родном языке, особенно в структуре предложений и грамматике. Вероятно, это ключи к разгадке того, чем грамматика английского языка отличается от грамматики языка, который вы знаете лучше всего.

11. Измените настройки телефона и социальных сетей на английский. Итак, возможно, вы научились основам английского языка. Хотите перейти к следующему шагу? Теперь пришло время как можно больше узнать о языке. Большинство из нас каждый день часами смотрит в свои телефоны, бесцельно скролля новости. Изменение настроек телефона на английский – это очень простой способ погрузиться в язык.

Изменив настройки телефона, вы научитесь некоторым словам, которые очень актуальны для современной жизни, и которые вы необязательно увидите на веб-сайтах для изучения слов, например, «лента новостей» и «спонсорский контент».

12. Найдите сообщество людей, изучающих язык. Когда вы начинаете углубляться в более сложные аспекты изучения английского языка, это может быть очень мотивирующим делом – поделиться своими мыслями, открытиями и разочарованиями с другими людьми.

Как сделать так, чтобы это было легко? Включите английский язык в свою повседневную жизнь и найдите способы получить удовольствие от процесса. Изменение настроек телефона на английский, подписка на отличные YouTube-каналы об ESL и подпевание Beatles не будут такими «сложными», как работа с учебником по иностранным языкам, но все это – действенные способы овладеть повседневными навыками английского языка.

**Материал взят из Интернета**

# ДРУЖБА НАРОДОВ – СИЛА И ГОРДОСТЬ НАШЕГО КОЛЛЕКТИВА!



30 июля, в Международный день дружбы народов, в АО «Farg‘onaazot» прошли торжественные мероприятия, ярко демонстрирующие крепкую дружбу нашего многонационального коллектива.

Со дня своего основания в «Farg‘onaazot» бок о бок трудятся представители различных национальностей, создавая атмосферу взаимоуважения, толерантности и дружбы.

Перед началом торжеств с приветственным словом к трудовому коллективу обратился председатель правления АО «Farg‘onaazot», Дилшод Маннонов. Он рассказал об истории создания праздника и отметил его важность:

қ«Международный день дружбы направлен на сокращение ксенофобии в обществе, улучшение взаимопонимания между людьми и служит мостом, обеспечивающим связь народов, стран, культур. Праздник способствует межличностному взаимопониманию и дружбе».

Дилшод Маннонов подчеркнул: - «Независимо от национальности, мы в первую очередь являемся гражданами Узбекистана и всегда должны на личном примере демонстрировать дружбу и согласие».

Праздничная часть мероприятия началась с выступлений художественной самодеятельности предприятия, состоящих из представителей различных национальностей. В этот день звучали поздравления, стихи и песни на различных языках мира, прославляющие дружбу между народами. Особенно запоминающимися были выступления танцоров в ярких национальных костюмах.

Песни и танцы народов мира стали ярким аккордом праздника, добавив всем участникам мероприятия праздничного настроения.







# СПАСАТЕЛИ АО «FARG‘ONAAZOT» НА СТРАЖЕ БЕЗОПАСНОСти

**История Спасательного отряда АО «Farg‘onaazot» имеет такую же славную историю, как и само предприятие и от того не менее интересно узнать, чем живёт и дышит столь сплочённый коллектив.**

О деятельности Спасательного отряда предприятия на страницах нашей заводской многотиражки расскажет начальник Управления ГЗ и ЧС Азизбек Холбекович Юсупов, который много лет руководил спасательным отрядом и сейчас данное подразделением входит в структуру руководимого им управления.

Азизбек Холбекович скажите пожалуйста на основании какого нормативно-правового акта осуществляет свою деятельность Спасательный отряд?

- Для начала скажу, что деятельность Спасательного отряда регламентируется Законом Республики Узбекистан «О спасательной службе и статусе спасателя» и Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дальнейшем совершенствовании государственной системы предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях Республики Узбекистан»

- Объектовые спасательные службы создаются по решению организаций, где предусмотрено обязательное наличие собственных спасательных служб и спасательных формирований для осуществления деятельности, предусмотренной законодательством. Так гласит Закон Республики Узбекистан «О спасательной службе и статусе спасателя». Поэтому на каждом опасном производственном объекте должна быть спасательная служба.

Расскажите пожалуйста какими особыми навыками должен обладать спасатель и что должен уметь специалист?

Скажу сразу, это работа не для всех. Важен склад характера. Идти на место аварии, зная, что там непредсказуемая опасность, – не для слабонервных. Спасатель идёт туда, где произошла нештатная ситуация, и главная задача – помощь пострадавшим. В первую очередь, вывести из опасной зоны. – Для этого нужно самому быть в норме. Знать устройство дыхательного аппарата и изолирующего костюма, их возможности. Любого из отделения ночью разбуди и спроси: «На сколько тебе хватит воздуха при вот таких условиях?» – ответит моментально. Зафиксировать пострадавшего на носилках, спустить его с высоты или поднять из ёмкости, ориентироваться в условиях плохой видимости – лишь малая толика того, что нужно уметь, – объяснил Азизбек Юсупов.

Какова структура и штатная численность Спасательного отряда?

- За все время существования Спасательного отряда структура практически не изменилась. Лишь во время реструктуризации предприятия для лучшей координации деятельности Спасательный отряд был включен в состав Управления ГЗ и ЧС. Всего в штате СО 76 человек, из них 45 спасателей.

Кто отвечает за исправное содержание изолирующих костюмов, дыхательных аппаратов и другого оборудования?

-Профилактическая группа – четыре человека. Два механика контролируют исправность изолирующих костюмов и дыхательных аппаратов, обслуживают их. Они же содержат оборудование и снаряжение спасателей.

Какие задачи возложены на инструкторов?

-Отдельное место в структуре спасательного отряда имеют инструктора профилактики. Именно они обучают персонал цехов правилам газоопасных работ и контролируют соблюдение всех требований. В случае внесения изменений и дополнений в действующее законодательство, нормативные акты – сначала внимательно изучаем сами, а потом учим людей.

«Нет цели наказать за нарушение, есть ориентир – нарушение исключить, чтобы работать на заводе было безопасно», – добавляет к сказанному Азизбек Холбекович.

Каково нынешнее состояние материально-технической базы Спасательного отряда?

На сегодняшний день со стороны руководства предприятия уделяется большое внимание обновлению материально-технической базы. Свидетельством этому служит приобретенные в 2018 году 10 защитных костюмов категории «Б» для спасательных работ, 20 воздушно – изолирующих аппаратов AIR GO PRO SL USA, 20 спасательных касок F-1 Ekstrem, а также воздушно спасательный модуль DREGER GO PRO в 2020 году были приобретены 2 аварийно-спасательных автомобиля марки ISUZU 75H PS.

Большое спасибо за рассказ. Мы уверены, что Спасательный отряд АО «Farg‘onaazot» будет и дальше надёжно охранять безопасность работников предприятия.

Подводя итог данному интервью необходимо добавить высокие результаты, и выучку которые демонстрировали и продолжают демонстрировать спасатели нашего предприятия — это годы усердных тренировок, взаимовыручка и строгая дисциплина, царящая в коллективе. Свидетельством высокой боевой готовности спасателей явились результаты учений, которые прошли 17 июля на предприятии, в рамках командно-штабных учений МЧС, проходивших 16 - 18 июля текущего года в Наманганской, Ферганской и Андижанских областях. В числе других служб, участвовавших в учениях спасательный отряд, ещё раз продемонстрировал свои умения и навыки по оперативной ликвидации аварии согласно разработанного плана.

**Беседу вёл Отабек Бегиджанов**

# ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫЙ ЦЕХ, СЕРДЦЕ ПРЕДПРИЯТИЯ КОТОРОЕ БЬЕТСЯ В РИТМЕ СТАЛЬНЫХ РЕЛЬСОВ

**В нашей стране, в соответствии с указом Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева «О праздновании дня работников железнодорожного транспорта Республики Узбекистан», ежегодно в первое воскресенье августа отмечается День работников железнодорожного транспорта. В этот праздничный день, хочется отметить неоценимый вклад железнодорожников АО «Farg‘onaazot» в развитие нашего предприятия.**



В многотысячном коллективе АО «Farg‘onaazot» трудятся представители различных профессий, которые вносят свой вклад в развитие предприятия. Сегодня, в преддверии Дня работников железнодорожного транспорта, когда железнодорожники всей страны подходят к этому празднику с новыми трудовыми свершениями, необходимо упомянуть о работниках ЖДЦ, которые бесперебойно обеспечивают доставку на предприятие необходимого сырья и комплектующих, а также доставляют фермерам страны и всем потребителям заграницей готовую продукцию предприятия - минеральные удобрения.

История железнодорожного цеха «Farg‘onaazot» тесно связана с историей самого предприятия. В 1961 году, под руководством инженера А.А. Шведова, был создан железнодорожный цех, который начал свою деятельность с перевозки материалов для строительства нового завода. С запуском производства минеральных удобрений, главной задачей ЖДЦ стала своевременная погрузка готовой продукции и доставка вагонов на станцию отгрузки.

В 1983 году в целях дальнейшего расширения железнодорожной сети, было начато строительство вагоноремонтного депо и построена новая железная дорога протяженностью 5 километров. Строительство депо, обслуживающего ремонт тепловозов и вагонов, было завершено и введено в эксплуатацию в 1988 году. С запуском цеха по производству карбамида, темпы перевозок минеральных удобрений еще больше ускорились. В 2000 году линейка локомотивов пополнилась современным тепловозом марки ТЭМ-2У мощностью 1200 лошадиных сил.

Сегодня молодой и опытный Давронбек Турсунов, руководя славным коллективом железнодорожного цеха, опирается на поддержку и богатый опыт своих старших товарищей.

В настоящее время эффективную работу железнодорожного цеха обеспечивают подвижной состав, состоящий из 2 локомотивов, 89 вагонов различного типа, предназначенных для перевозки химической продукции.

Общая протяженность железных дорог, находящихся в распоряжении ЖДЦ, достигла 21 километра.



На сегодняшний день со стороны руководства предприятия уделяется большое внимание на развитие железнодорожной инфраструктуры. Так в текущем году проводятся масштабные работы по ремонту железнодорожных путей, проводятся капитальные ремонты тепловозов и собственных вагонов. Для приема товаров и отправки готовой продукции на постах управления и в весовом зале, в соответствии с требованиями времени, были установлены электронные весы, отремонтированы и расширены здания ЖДЦ.

Сегодня железнодорожный цех является неотъемлемой частью АО «Farg‘onaazot», в нём трудятся представители таких железнодорожных профессий как: составители поездов, машинисты тепловозов и помощники, монтёры пути, слесаря по ремонту подвижного состава, а также инженерно-технический персонал непосредственно связанный с железной дорогой. Суммируя сказанное о коллективе цеха добавим – это настоящие профессионалы, которые с гордостью несут звание железнодорожника, внося весомую лепту в успешную работу предприятия и обеспечивая бесперебойную доставку продукции нашим потребителям.

С праздником, дорогие железнодорожники!

# В ДНИ ЛЕТНИХ КАНИКУЛ В ДЕТСКОМ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОМ КОМПЛЕКСЕ «КИМЁГАР» ОРГАНИЗУЮТСЯ РАЗЛИЧНЫЕ СПОРТИВНЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ

**В эти летние дни в Детском оздоровительном комплексе «Кимёгар» АО «Farg'onaazot» царит атмосфера веселья и активного отдыха. Помимо захватывающих водных процедур и солнечных ванн, для детей работников предприятия организована насыщенная программа спортивных мероприятий.**

**Профсоюзный комитет, Совет Союза молодёжи предприятия и Служба охраны Национальной гвардии Ферганской области, в целях создания качественного отдыха и интересного времяпрепровождения школьников, организовали соревнования по стрельбе из лука, эстафетные забеги, а также увлекательные психологические тренинги, направленные на развитие командного духа и личностных качеств.**





Стрельба из лука стала настоящим испытанием для меткости и концентрации внимания. Юные стрелки с энтузиазмом состязались друг с другом, демонстрируя точность и выдержку.

Эстафетные забеги заставили ребят проявить не только скорость, но и командную слаженность. Ребята соревновались с задором, поддерживая друг друга и болея за свою команду.

Психологические тренинги, проведенные опытными психологами, помогли детям развить коммуникативные навыки, повысить самооценку и научиться эффективно решать задачи в команде.

По итогам всех соревнований победителям вручены памятные подарки и дипломы, которые стали приятным напоминанием о проведенном времени и достигнутых результатах.

Организаторы мероприятия – профсоюзный комитет и Совет Союза молодёжи предприятия – отмечают важность таких мероприятий для всестороннего развития детей и создания условий для интересного и полезного досуга.

Впереди еще много интересных мероприятий, которые обещают ребятам яркие впечатления и возможность провести лето с пользой для здоровья и развития!

# НА ПРЕДПРИЯТИИ ПРОШЕЛ СЕМИНАР НА ТЕМУ: «ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ ПРИ НАЗНАЧЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПЕНСИЙ»

**В актовом зале АО «Farg'onaazot» 19 июля текущего года был организован семинар на тему: «Повышение качества государственных услуг при назначении государственных пенсий».**




В семинаре приняли участие начальник Ферганского областного управления Внебюджетного пенсионного фонда Акрамов Зохиржон Зафарович, начальник Ферганского городского отдела Внебюджетного пенсионного фонда Абубакр Умурзаков, начальник Ташлакского районного отделения Внебюджетного пенсионного фонда Одилжон Отажонов.

В ходе мероприятия были рассмотрены актуальные вопросы, касающиеся дальнейшего совершенствования системы социальной защиты населения, повышения качества государственных услуг при назначении пенсий, укрепления принципов социальной справедливости, а также повышения адресности и эффективности программ социальной защиты населения.

Доклады руководителей Внебюджетного пенсионного фонда вызвали большой интерес у работников предприятия. В ходе открытой дискуссии они получили исчерпывающие ответы на вопросы, касающиеся назначения пенсии.

В завершение семинара в торжественной обстановке аппаратчику цеха по производству продуктов Соды, Баходиру Исомиддинову, проработавшему на предприятии много лет, было вручено пенсионное удостоверение.

Данный семинар является ярким примером того, как в АО «Farg'onaazot» уделяется внимание вопросам юридической грамотности и социальной защиты своих сотрудников.




# ДЛЯ МОЛОДЁЖИ ПРЕДПРИЯТИЯ ОРГАНИЗОВАНА ЭКСКУРСИЯ

**6 июня, текущего года, Профсоюзный комитет и Совет Союза молодёжи АО «Farg'onaazot» организовали увлекательную экскурсию для активных молодых сотрудников предприятия в село Чодак, расположенное в живописном предгорном районе Наманганской области.**

Это мероприятие стало не только отличным способом отдохнуть от повседневных забот и насладиться красотами природы, но и познакомиться с горным ландшафтом и природным биоразнообразием этого уникального места.

Участники экскурсии смогли окунуться в атмосферу девственной природы и насладится чистым горным воздухом.

Молодёжь «Farg'onaazot» с удовольствием познакомилась с местными традициями и обычаями, а также продегустировали экологически чистые продукты.

Поездка в Чодак стала не только интересным путешествием, но и возможностью укрепить командный дух, познакомиться поближе с коллегами и провести время в приятной атмосфере.

Профсоюзный комитет и Совет Союза молодёжи предприятия выражают благодарность всем участникам экскурсии и надеются, что подобные мероприятия станут хорошей традицией для молодежи «Farg'onaazot».



# ПОЗДРАВЛЯЕМ ЮБИЛЯРОВ!

В июле месяце отмечают круглую дату, день рождения следующие работники нашего предприятия:

** Абдурахманова Зарифа Карабоевна, рабочий производственных бань цеха АС-72М*
** Садовченко Надежда Александровна, ведущий специалист Производственно-технического управления*
** Рахмонов Мумин Махмудович, слесарь-ремонтник цеха «Аммиак-3»*
** Ефимова Наталья Ивановна, специалист по отправке грузов Управления логистики*
** Мамадураимова Зиедахон Абдумухторовна, старший мастер смены цеха СЭЦ*
** Сотиболдиева Тожихон Насридиновна, ткач цеха по выпуску полиэтиленовых мешков*
** Холбутаев Махаммадали Аминжонович, бетонщик Ремонтно-строительного цеха*
** Содиков Эркинжон Йигиталиевич, машинист-обходчик по котельному оборудованию Котельного цеха*
** Каримов Аъзамжон Умарджонович, заместитель начальника отдела (по отправке готовой продукции)*
** Хусамбоев Нодиржон Хомиджонович, ведущий специалист*
** Джалилов Абдималик Рузибаевич, футеровщик (кислотоупорщик) Участка спецработ по химзащите*
** Сотволдиев Абдукохxор Турсунович, монтёр пути Железнодорожного цеха.*

*В этот знаменательный день от имени редакции газеты "Кимёгар" и всех коллег и учеников работающих плечом к плечу с нашими юбилярами хотим выразить Вам наше глубокое уважение и признательность за Ваши профессиональные и личные качества и неоценимый вклад в наше общее дело, развитие и процветание предприятия. Желаем все Вам неиссекаемой энергии, вдохновения и достижения всех поставленных целей. Пусть каждый новый день приносит только положительные эмоции и радостные моменты.*



Материалы 3-й и 4- полос подготовил Отабек Бегиджанов

Kimyogar
MUASSIS:
«Farg`onaazot» aksiyadorlik jamiyati
ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108, Farg'ona shahri, Sanoat ko'chasi, 222. «Farg'onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.
Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi 236 «B» - uy. Qog'oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.
Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 31.07.2024-yil.
Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA.
Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAZIROV.
Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.
Aziz mushtariylar, gazetamizning ushbu nashrida muqaddas diniy so'zlar mavjudligi sababli gazetani har yerga tashlamasligingizni iltimos qilamiz!